

# INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 4  
ISSUE 1 2024

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ

ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

VOLUME-4, ISSUE-1



TOSHKENT - 2024



# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2024-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

**MIRZAYEV IBODULLA**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**MIRZAYEV IBODULLA**  
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

**Muhiddinov Muslihiddin**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sirojiddinov Shuhrat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Rasulov Ravshanxo'ja**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dilorom Salohiy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sodiqov Qosimjon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Mark Tutan**  
f.f.d., professor (Fransiya)  
**Binnatova Almaz Ulvi**  
f.f.d., professor (Ozarbayjon)  
**To'xliyev Boqijon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shodmonov Nafas**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Ramiz Asker**  
f.f.d., professor (Ozarbayjon)  
**Yo'lidoshev Qozoqboy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Jo'raqulov Uzoq**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Funda Toprak**  
f.f.d., professor (Turkiya)  
**Nabiulina Guzal**  
f.f.d., professor (Tatariston)  
**Yusupova Dilnavoz**  
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)  
**Rahim Ibrohim**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)  
**Suvonova Jumagul**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Asadov Maqsud**  
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)  
**Sultanov Tulkin**  
PhD, dotsent (O'zbekiston)  
**Mirzayev Rahmatilla**  
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)  
**Muhitdinova Badia**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Ruzmanova Roxila**  
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)  
**Narziyeva Ma'mura**  
kotib, o'qituvchi (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ  
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

**JABBOROV NURBOY**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**ЖАББОРОВ НУРБОЙ**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**JABBOROV NURBOY**  
DSc, professor (Uzbekistan)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

**Toshqulov Abduqodir**  
i.f.d., (O'zbekiston)  
**Xalmuradov Rustam**  
t.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Eshqobil Shukur**  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir (O'zbekiston)  
**To'xtasinov Ilhom**  
p.f.d. (O'zbekiston)  
**Rixsiyeva Gulchehra**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Benedek Peri**  
f.f.d., professor (Vengriya)  
**Ko'chiyev Ismat**  
publisist, O'zbekiston va Belorussiya  
yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)  
**Olimov Karomatillo**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dadaboyev Hamidulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Aitpayeva Gulnora**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Rahmonov Nasimxon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shomusarov Shorustam**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dyu Rye Andre**  
f.f.d., professor (Fransiya)  
**Pervin Chapan**  
f.f.d., professor (Turkiya)  
**Hamroyev Juma**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Ibrohimov Elchin**  
f.f.n., professor (Ozarbayjon)  
**Jo'rayev Shokirjon**  
F-m.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Hasanov Shavkat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Nurullo Oltoy**  
f.f.n., (Afg'oniston)  
**Xalliyeva Gulnoz**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Alim Labib**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)  
**Nodira Afoqova**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Aftondil Erkinov**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Мухиддинов Муслихиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сирожиддинов Шухрат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Расулов Равшанхужа**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дилором Салохий**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Содиков Косимжон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Марк Тутан**  
д.ф.н., профессор (Франция)

**Биннатова Алмаз Улви**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Тухлиев Бокижон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шодмонов Нафас**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Рамиз Аскер**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Юлдашев Казакбай**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Журакулов Узок**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Фунда Топрак**  
д.ф.н., профессор (Турция)

**Набиуллина Гузаль**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Юсупова Дилнавоз**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

**Рахим Иброхим**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)

**Сувонова Жумагул**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

**Асадов Максуд**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

**Султанов Тулкин**  
PhD, доцент (Узбекистан)

**Мирзаев Рахматилла**  
к.ю.н., доцент (Узбекистан)

**Мухитдинова Бадиа**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

**Рузманова Рохила**  
доц., отв. секретарь (Узбекистан)

**Нарзиева Мамура**  
секретарь, преподаватель (Узбекистан)

## НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

**Тошкулов Абдуходир**

к.э.д., (Узбекистан)

**Халмурадов Рустам**

д.т.н., профессор (Узбекистан)

**Эшкобил Шукур**

Заслуженный работник культуры

Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)

**Тухтасинов Илхам**

д.п.н. (Узбекистан)

**Рихсиева Гулчехра**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Бенедек Пере**

д.ф.н., профессор (Венгрия)

**Кочиев Ислам**

Публицист, член Союза писателей

Узбекистана и Беларуси (Узбекистан)

**Олимов Кароматилло**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дадабаев Хамидулла**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Аитпаева Гулнора**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Рахмонов Насимхон**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шомусаров Шорустам**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дю Рье Андре**

д.ф.н., профессор (Франция)

**Первин Чапан**

д.ф.н., профессор (Турция)

**Хамроев Джума**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Иброхимов Элчин**

к.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Джураев Шокирджон**

д.ф.м. н., профессор (Узбекистан)

**Хасанов Шавкат**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Нурулло Олтой**

к.ф.н., (Афганистан)

**Халиниева Гулноз**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Алим Лабиб**

д.ф.н., профессор (Афганистан)

**Нодира Афокова**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Афтондил Эркинов**

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD:

**Mukhiddinov Muslikhiddin**  
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)  
**Sirojiddinov Shukhrat**  
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)  
**Rasulov Ravshankhuja**  
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)  
**Dilorom Salokhiy**  
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)  
**Sodikov Kosimjon**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Mark Tutan**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (France)*  
**Binnatova Almaz Ulvi**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)*  
**Tukhliev Bokijon**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Shodmonov Nafas**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Ramiz Asker**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)*  
**Yuldashev Kozokboy**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Jurakulov Uzok**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Funda Toprak**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Turkey)*  
**Nabiulina Guzal**  
*Doc. of philol. scienc., prtof. (Tatarstan)*  
**Yusupova Dilnavoz**  
*Doc.. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Rakhim Ibrokhim**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Afghanistan)*  
**Suvonova Jumagul**  
*Cand. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Asadov Makhsumd**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Sultanov Tulkin**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Mirzayev Rahmatilla**  
*Cand. of legal scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Mukhiddinova Badia**  
*Cand. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Ruzmanova Rokhila**  
*Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)*  
**Narziyeva Ma'mura**  
*Secretary, teacher (Uzbekistan)*

## SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

**Toshkulov Abdukodir**  
Doc. of econ. scienc., (Uzbekistan)  
**Khalmuradov Rustam**  
Doc. of technic. scienc., prof. (Uzbekistan)  
**Eshqobil Shukur**  
Honored Worker of Culture of the  
Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)  
**Tukhtasinov Ilkhom**  
Doc. of pedag. scienc. (Uzbekistan)  
**Riksieva Gulchekhra**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Benedek Peri**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Hungary)*  
**Kochiyev Ismat**  
*Publicist, member of the Writers' Union of Uzbekistan  
and Belarus (Uzbekistan)*  
**Olimov Karomatullo**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Dadaboev Khamidulla**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Aitpaeva Gulnora**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Rakhmonov Nasimxon**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Shomusarov Shorustam**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Dyu Rye Andre**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (France)*  
**Pervin Chapan**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Turkey)*  
**Khamroev Juma**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Ibrokhimov Elchin**  
*Cand. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)*  
**Juraev Shokirjon**  
*Doc. of phys.-math. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Khasanov Shavkat**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Nurullo Oltoy**  
*Cand. of philol. scienc., (Afghanistan)*  
**Khallieva Gulnoz**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Alim Labib**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Afghanistan)*  
**Nodira Afokova**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*  
**Aftondil Erkinov**  
*Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)*

Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## AZIZ MUSHTARIY!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash ro'g'risida"gi PQ-4865-sون Qarorida "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnni hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ 'ib etish..." lozimligi alohida ta'kidlangan.

Bu filologiya ilmi va navoiyshunoslik, xususan, adabiy ta'sir, qiyosiy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjima masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar zimmasiga jahonning ilg'or texnologiyalari, nazariy g'oyalariga hamohang ilmiy tadqiqotlar yaratish vazifasini yuklaydi. Olimlarimizning ilmiy salohiyati, innovatsion g'oyalarini jahonda targ 'ib qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro nufuzga ega ushbu jurnal ta'sis etildi.

"Alisher Navoiy" deb nomlangan ushbu jurnalda navoiyshunoslik, Navoiy adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarini o'z maqolalari bilan ishtirok etishga taklif qilamiz.

## TAHRIRIYAT

### УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В Постановлении №ПП-4865 Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева "О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои" особо отмечается "огромное значение произведений Алишера Навои, в которых нашли глубокое отражение национальные и общечеловеческие ценности, в развитии мировой культуры, их роль в повышении интеллектуального потенциала и духовно-нравственном воспитании молодого поколения, а также в целях обеспечения дальнейшего изучения и популяризации литературно-научного наследия великого поэта и мыслителя...".

Это ставит задачи перед филологами, навоиведами, исследователями литературного влияния, сравнительного литературоведения, текстологии и вопросов перевода создания научных исследований, соответствующих передовым мировым технологиям и теоретическим идеям. В целях пропаганды и продвижения научного потенциала и инновационных идей наших ученых учреждён данный международный журнал.

Приглашаем публиковать свой статьи в нашем журнале "Алишер Навои" отечественных и зарубежных исследователей, занимающихся изучением жизни и творчества литература Навои, его роли в мировой литературе, проблемами литературного влияния и сравнительной поэтикой.

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

### DEAR READER!

*Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the celebration of the 580th anniversary of the great poet and thinker Alisher Navoi" No PP-4865 given the invaluable role of cultivating high moral qualities in their hearts, as well as the need to further study and widely promote the literary and scientific heritage of the great poet and thinker in our country and internationally...."*

*This puts the task of researchers in the field of philology and Navoi studies, in particular, literary influence, comparative literature, textual studies and translation, in creating scientific research in harmony with the world's advanced technologies and theoretical ideas. This internationally renowned journal was established to promote and support the scientific potential and innovative ideas of our scientists around the world.*

*In this magazine, called "Alisher Navoi", we invite researchers who are interested in Navoi studies, the role of Navoi's literary heritage in world civilization and literary influence to participate with their articles.*

## EDITORIAL

# MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

<b>1. Dilorom Salohiy</b>	NIZOMIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA MAJOZIY TASVIR NAMUNASI.....	9
<b>2. Nurboy Jabborov</b>	TURKIY RUHIYAT – ALISHER NAVOIY IJOD KONSEPSIYASINING ASOSI.....	15
<b>3. Ozoda Tojiboyeva</b>	ALISHER NAVOIY IJODINING ROSSIYADAGI MANBALARI VA TAVSIFLARI.....	23
<b>4. Sherxon Qorayev</b>	TEMURIY SHAHZODA MUHAMMAD SULTON VA ALISHER NAVOIY.....	30

## MA'RIFAT YOG'DUSI

<b>5. Serpil Soydan</b>	NEVÂYÎ'NIN FEVÂYIDÜ'L-KIBER DÎVÂNINDA ÂKIBET / HALAS / RAHM / TEMENNA / VEFA REDIFLI GAZELLER ÜZERINE.....	36
<b>6. Martaba Melikova</b>	ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....	44

## NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

<b>7. Funda Toprak</b>	BEDÂYİÜ'L BİDÂYE'DE MİTOLOJİK UNSURLAR ('ANKĀ-KĀF-SİMŪRG VE EJDERHA).....	52
<b>8. Shahlo Rahmonova</b>	NAVOIY LIRIKASIDA İJTIMOY FAOL AYOL OBRAZI VA POKIZA ISHQ MASALASI.....	61
<b>9. Farida Karimova</b>	ALISHER NAVOIYNING "BADOYE' UL-BIDOYA" DEVONI DEBOCHASI ALOHIDA ADABIY HODISA SIFATIDA.....	71

## ILM, OLAM VA OLIM

<b>10. Elmurod Nasrullahov</b>	NAVOIYGA DOIR TARIXIY MANBALAR VA ULARNING ILK O'RGANILISHI MASALALARI.....	79
<b>11. Шоира Темирова, Гулбахор Хаджикурбанова, Саодат Юлдашева</b>	ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ И ДОСТИЖЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	87

## TAQRIZ, TALQIN VA TAHLIL

<b>12. Ibrohim Haqqul</b>	SAKINAMEH IS A POEM OF LIFE AND JOY ( <i>Introduction to the book "Sakinameh: history and poetics" by Professor Maksud Asadov</i> ).....	92
<b>13. Ozoda Tojiboyeva</b>	ELLARNI BIRLASHTIRGAN SHOIR ( <i>Turkiya davlati Bursa shahridagi O'zbek tili va madaniyati markazi ochilishi va "Alisher Navoiy va XXI asr" xalqaro konferensiyasi bo'yicha</i> ).....	95

## **NAVOIY POETIKASI**

### **14. Maysara Eshniyazova**

ALISHER NAVOIYNING “SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA DINIY-TASAVVUFİY  
G‘OYALARİNG POETİK İFODASI.....101

## **NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI**

### **15. Hamidulla Dadaboyev**

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA İFODALANGAN BOSH VA ICH KİYIM  
NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARDA VOQELANISHI.....117


### **16. Ma’mura Zohidova**

O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLAR  
IZOHI.....124

## **NAVOIY VA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI**

### **17. Gulnoza Xoldorova**

ALISHER NAVOIY DIDAKTIK QARASHLARINING TURKIY ILDIZLARI.....129



ISSN: 2181-1419  
www.tadqiqot.uz

Nurboy JABBOROV  
f.f.d., prof. (O'zbekiston)

## TURKIY RUHIYAT – ALISHER NAVOIY IJOD KONSEPSIYASINING ASOSI

**For citation:** Nurboy Jabborov. THE TURKIC SPIRIT IS THE BASIS OF ALISHER NAVOI'S CREATIVE CONCEPT. Alisher Navoi. 2024, vol. 4, issue 1, pp. 15-22

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11507834>

### ANNOTATSIYA

Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning turkiy millat sha'ni-sharafini yuksaltirish, turkiy tilning adabiy til sifatidagi nufuzi baland bo'lishini ta'minlash yo'lidagi qizg'in faoliyati tadqiq qilingan. Buyuk mutafakkirning ota va pir maqomda ko'rgan Sayyid Hasan Ardasherga 1465-yili yozgan she'riy maktubi turkiy ruhiyat ifodasi nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan. Ushbu maktub she'riy vazn, badiiy tasvir vositalari va poetik mazmun uyg'unligi jihatidan tahlil etilib, unda ulug' shoirning turkiy tilning yuksak maqomini ta'minlash uchun kurash maydoniga kirishi aks etgani aniqlangan. "Muhokamat ul-lug'atayn" turkiy tildagi forsiyda bo'limgan xususiyatlar jihatidan tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** turkiy til, millat, turkiy ruhiyat, she'riy maktub, vazn, til xususiyatlari, tahlil.

Нурбой ЖАББОРОВ  
д.ф.н., проф. (Узбекистан)

## ТЮРКСКИЙ ДУХ – ОСНОВА ТВОРЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ АЛИШЕРА НАВОИ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается плодотворная работа великого поэта Алишера Навои по возвеличиванию чести тюркской нации и обеспечению высокого престижа тюркского языка как литературного. Его стихотворное письмо, написанное в 1465 году Сайду Хасану Ардашеру, которого он воспринимал как отца, проанализировано с точки зрения выражения турецкого духа. Письмо изучено с точки зрения стихотворного метра, художественных образных средств, гармонии поэтического содержания, а также установлено, что великий поэт вступил на поле борьбы за обеспечение высокого статуса тюркского языка. Исследован "Мухокамат ул-лугатайн" с точки зрения особенностей тюркского языка, отличающих от персидского и сделаны научно-теоретические выводы.

**Ключевые слова:** тюркский язык, нация, тюркский менталитет, стихотворное письмо, поэтический метр, языковые особенности, анализ.

**Nurboy JABBOROV**  
DSc, Prof. (Uzbekistan)

## THE TURKIC SPIRIT IS THE BASIS OF ALISHER NAVOI'S CREATIVE CONCEPT

### ANNOTATION

The article examines the great poet Alisher Navoi's intense work to raise the honor of the Turkish nation and ensure the high prestige of the Turkish language as a literary language. His poetic letter written in 1465 to Sayyid Hasan Ardasher, whom he saw as a father, was analyzed from the point of view of the expression of the Turkish spirit. The letter was studied in terms of poetic meter, artistic image tools, and the harmony of poetic content as well as it was determined that the great poet entered the field of struggle to ensure the high status of the Turkish language. "Muhokamat ul-lughatayn" was researched in terms of non-Persian features of the Turkish language, besides scientific and theoretical conclusions were drawn.

**Key words:** Turkish language, nation, Turkish mentality, poetic letter, poetic meter, language characteristics, analysis.

Jahon estetik tafakkurining buyuk namoyandası hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodining asosiy konsepsiysi, birinchidan, dunyoning eng boy tillaridan hisoblangan turkiy tilning qadri nechog'liq yuksak ekanini nazariy va amaliy jihatdan isbotlash, ikkinchidan, turkiy millatning sha'ni va sharafini munosib darajada himoya qilish bo'lgani ayon. Aslida, VII – VIII asrlarda ajdodlarimiz tomonidan turkiy-run yozuvida O'rxun-Enasoy toshbitiklarining, XI asrda "Devonu lug'otit-turk" singari til qomusi va "Qutadg'u bilig" dostonining, XII asrda esa "Hibat ul-haqoyiq"dek nodir badiiyat durdonasining yaratilishi natijasida turkiy tilning lug'at boyligi va ifoda imkoniyatlari nechog'liq keng ekani namoyon etilgan edi. Biroq keyingi asrlarda tilimizning adabiy til sifatidagi nufuzi nisbatan pasaya bordi. Turkiy millatning buyuk mutafakkirlari ham jahonga mashhur asarlarini arabiy yoki forsiy tilda yozdi. Natijada hazrat Navoiy badiiy ijod maydoniga kirgan XV asr ikkinchi yarmida turkiy til nafis adabiyot tili bo'la olmasligi, bu tilda "Xamsa" singari gigant asarlarni yozish imkon yo'qligi haqida baralla so'zlana boshlagan edi. Tabiiyki, bunday vaziyatga chinakam millatparvar ijodkor befarq qaray olmaydi. Hazrat Alisher Navoiy bunday nomaqbtl holatga dastlab Sayyid Hasan Ardasherga masnaviy yo'lida yozgan she'riy maktubida qat'iy munosabat bildirdi. Ma'lumki, hazrat Navoiy "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida: "...farzand deb erdilarkim, o'z havlim go'shasida alar uchun bir muxtasar maskane alohida tartib qilib erdim, gohiki, mufrit riyozaatlardin tab'larig'a kalole voqe' bo'lsa erdi, xotirlari tashhizi uchun ul maskang'a kelib, bir kun-ikki kun turub, yana xonaqohg'a o'z xilvatlarig'a borurlar erdi" [Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер, 2011: 13], deb bu ulug' zot bilan ota-boladek qadrondon bo'lganini aytadi. U vafot etganda, hazrat Navoiy sohibi aza bo'lib, ta'ziya qabul qilgan. Hatto Jo'yin nav degan anhor suvi o'tadigan keng va xushhavo yerda unga xilxona quydigan.

She'riy maktubning alohida diqqat qaratish zarur bo'lgan muhim jihatlari, birinchidan, ushbu masnaviy 1465-yili navqiron Alisher yigirma to'rt yoshga kirgan kezlari yozilgan. Ikkinchidan, bu maktubda buyuk mutafakkir hayoti va ijodining asosiy konsepsiysi – turkiy tilning adabiy til sifatidagi imkoniyati nechog'liq yuksak ekanini isbotlash va millatning sha'n-u sharafini, or-u nomusini himoya qilish ruhiyati quvvatli ifodalangan. Jumladan, masnaviyda buyuk shoir mana bunday yozadi:

Men ul menki, to turk bedodidur,  
Bu til birla to nazm bunyodidur.  
Falak ko'rmadi men kibi nodire,  
Nizomiy kibi nazm aro qodire.

[Навоий. Гаройиб ус-сиғар, 2011: 697]

"Bedod" so'zi lug'atda "jabr, zulm,adolatsizlik" ma'nolarini anglatadi. Demak, yuqoridagi baytda hazrat Navoiy o'zi haqda yozib, turkiy millatining jabr ko'rgan, zulmga uchragan,adolatsizlik iztiroblarini tortgan bir farzandi ekaniga urg'u bermoqda. "Men ul menki" degan ta'kid zamirida jabr

ko‘rish darajasi boshqalardan ham ko‘ra unda yuz chandon og‘irroq bo‘lganini anglatadi. Chunki oddiy avom millatparvar bilan mutafakkir millatparvar qalbidagi dardning miqyosi, tabiiyki, bir xil bo‘lmaydi. Masnaviyning davomida buyuk shoir turkiy tilda qachondan beri nazm ijod qilinayotgan bo‘lsa, falak Nizomiy darajasida nazmga qodir bo‘lgan mendek nodir siymoni ko‘rmagan, deya faxriya bitgan. Holbuki, ushbu she’riy maktub yozilgan davrda hazrat Navoiyni Navoiy qilgan “Xamsa” hali yaratilmagan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga tartib berilmagan, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” va hokazo eng mashhur asarlari dunyo yuzini ko‘rmagan edi. Hali endigina “Ilk devon” ko‘chirilib, muxlislar qo‘liga yetib borgan edi. Yuqoridagi faxriya shundan darak beradiki, o‘sha kezlariyoq hazrat Navoiy o‘z qalamining kuchini, turkiy so‘zning qudratini chuqur his qilgan va keng miqyosda e’tirof qozongan.

Uchinchidan, hazrat Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida hayot va ijod mohiyatini mana bu tarzda ta’sirli ifodalaydi: “Бўлурдин даҳр бўстонида мавжуд, Эмасдур ғайри сўзу дард мақсуд” [Навоий. Фарҳод ва Ширин, 2011: 341]. Bu o‘rinda “so‘z” – kuydirish, o‘rtash ma’nolarida. Demak, ulug‘ bobokalonimiz ta’biricha, insonning dahr bo‘stoniga kelishidan, tirikligidan murod – so‘z-u dard. Qalbda ishq otashi, yurakda dard bo‘lmasa, yashamoqning mazmuni yo‘qoladi. Agar badiiy asar ana shu dard-u so‘zdan mahrum qolsa, zarracha ham qimmatga ega bo‘lolmaydi. Mana bu baytda ana shu ijodiy-ruhiy holat bor murakkabligi bilan aks etgan:

Ne nazme der ersam meni dardnok -  
Ki, har harfi bo‘lg‘ay aning durri pok.

[Навоий. Фаройиб ус-сигар, 2011: 697]

Buyuk shoir nazmda nimaiki yozsa, mohiyatan dard bilan yo‘g‘rilganini, uning har bir harfi pok bir dur ekanini alohida ta‘kidlayapti. O‘sha kezlarini hazrat Navoiyni qiyagan eng og‘ir dard tilining kansitilayotgani, millat estetik tafakkuri takomilining asosi bo‘lgan milliy adabiyotning buyuk mutafakkir ideali darajasida yuksaklikka ko‘tarila olmayotgani edi. Buning uchun muayyan sharoit yetilmog‘i, nazm beshasining sheri maydonga kelmog‘i taqozo etilardi.

Yetar Tengridin oncha quvvat manga -  
Ki, bo‘lmas bitiriga fursat manga.

[Навоий. Фаройиб ус-сигар, 2011: 697]

Buyuk shoir o‘ziga ana shunday quvvat ato etilganini teran his etgan. Bu quvvatni Tangridan yetgan deb hisoblashi uning e’tiqodi tuz, komil musulmon bo‘lganidan dalolat beradi. Bu quvvatning miqyosi shu darajadaki, ilohiy zavq bilan quyilib kelgan so‘z javohirlarini bitib ulgura olmaydi, hatto bunga fursat ham topish mahol.

To‘rtinchidan, hazrat Navoiy she’riy maktub uchun aruzning mutaqorib bahrini – mutaqoribi musammani mahzuf vaznnini tanlagan. Taqtiyi quyidagicha:

fauvlun fauvlun fauvlun faal  
V – / V – / V – / V –

Ma’lumki, Sharq she’riyatining nodir namunalari hisoblangan Abulqosim Firdavsiyning mashhur “Shohnoma”si, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i, jangnoma ruhidagi asarlar ana shu vaznda bitilgan. Buyuk mutafakkir ota va pir maqomida ko‘rgan Sayyid Hasan Ardasherha atalgan nazmiy maktubni nima uchun aruzning boshqa sokin, lirik talqingga mos bahrida emas, jangnoma ruhidagi asarlarga monand mutaqoribda yozdi, degan savol, tabiiyki, ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Buning birinchi sababi, “...mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she’riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo‘lgan o‘n bir bo‘g‘inli vazniga juda uyg‘un ekani” [Yusupova 2022: 8] bo‘lsa, ikkinchi sababi o‘sha davrda hukm surgan turkiy tilga noto‘g‘ri munosabat bilan bog‘liq. Ulug‘ millatparvar keyinchalik “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bitilgan mana bu fikrlarida buni quyidagicha ta’sirli ifodalagan: “Bu ehtimolga xud yo‘l bersa bo‘lmaskim, turk ulusining xushtab’lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila aytmag‘aylar, balki ko‘pi ayta olmag‘aylar va aytalar ham sort turk tili bila nazm aytqandek fasih turklar qoshida o‘quv va o‘tkara olmag‘aylar va o‘qusalar, har lafzlarig‘a yuz ayb topilg‘ay va har tarkiblarig‘a yuz e’tiroz vorid bo‘lg‘ay” [Навоий. Муҳокамат ул-лугфатайн, 2011: 525]. Buyuk shoirni yigirma to‘rt yoshidayoq ana shu savol qiyagan, ko‘zlaridan uyquni, qalbidan halovatni olgan: “**Bu ehtimolga xud yo‘l bersa bo‘lmaskim, turk ulusining xushtab’lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila**

**aytmag‘aylar”.** Holbuki, mazkur she’riy maktub yozilgan davrda ayni shunday vaziyat hukmron edi. “Turk ulusining xushtab‘lari” aksar o‘z ona tillarida emas, forsiy tilda asarlar yozar, turkiy tilda fasohat va balog‘at bilan so‘z aytishni mumkin bo‘lmagan hol sifatida qarar edi. Ijodiy quvvati benihoya baland, qalbida millatparvarlik tuyg‘usi kuchli bo‘lgan hazrat Navoiyni ana shu hol chuqur iztirobga solgan. Shuning uchun ham u nazmiy maktubda forsiy she’riyatning buyuk namoyandasini, “Shohnoma” asari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan Abulqosim Firdavsiy nomini tilga olib, ijod musobaqasida uni mag‘lub eta olishini zamondoshlari ongi va qalbiga chaqmoqdek ta’sir qiladigan so‘zlar bilan betakror talqin etadi:

Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur -  
Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.

Raqam qildi farxunda «Shahnomá»e -  
Ki, sindi javobida har xomae.

Musallamdurur zohiran bu ishi -  
Ki, ma’razg‘a kelmaydurur har kishi.

[Навоий. Фаройиб ус-сиғар 2011: 697-698]

Buyuk bobokalonimiz talqinicha, she’riyat maydonida Firdavsiy gurd, ya’ni zabardast pahlavon. Shu darajadaki, hatto Rustami doston kelsa ham, yelkasini yerga tekkiza oladi. Mashhur “Shohnoma”ni yozganda, kimki unga javoban shunday asar bitmoq istagan bo‘lsa, barchasining qalami sindi, ya’ni javob yozishga quvvati yetmadidi. Zohiran, bu ish ungagina munosibday, boshqa hech kim ijodda bu darajaga erisha olmaydiganday ko‘rinadi.

Dedi o‘z tili birla ul koni ganj:  
“Ki, si sol burdam ba “Shahnomá” ranj”.

[Навоий. Фаройиб ус-сиғар 2011: 698]

Bu o‘rinda hazrat Navoiy ijodiy munozaraning, babs madaniyatining yuksak namunasini ko‘rsatadi. Firdavsiyning ham hurmatini joyiga qo‘yib, uni so‘z xazinasining koni, deya ta’riflaydi. U o‘z tili bilan “Shohnoma”ni yozish uchun o‘ttiz yil ranj chekkanini, mashaqqat tortganini aytgan, deya buning dalili sifatida buyuk shoir so‘zlaridan iqtibos keltiradi.

Ani derga bo‘lsa qachon rag‘batim,  
Erur oncha Haq lutfidin quvvatim -

Ki, har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,  
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘tuz oy.

Agar xossa ma’no gar iyhom erur,  
Aning kunda yuz bayti halvom erur.

[Навоий. Фаройиб ус-сиғар 2011: 698]

Ya’ni hazrat Alisher Navoiy mabodo Firdavsiy “Shohnoma”siga javob yozish istagi tug‘ilsa, Haq taoloning lutfi tufayli ijodiy quvvatim shu darajadaki, nutq nechog‘liq sustlik ko‘rsatmasin, uning o‘ttiz yilda yozganini o‘ttiz oyda bita olaman, deya alohida ta’kidlaydi. Agar xossa ma’no yoki iyhom san’ati asosida yozish talab etilsa ham, uning (ya’ni Firdavsiyning) yuz baytini bitish men uchun xuddi halvo yeish kabi oson, deb ijodiy salohiyati qanchalik baland ekanini bildiradi. O‘ttiz oy – ikki yarim yil, demakdir. Bunday fikrni aytish va yuksak saviyada uddalash uchun ijodkor nechog‘liq benazir iste’dodga, naqadar hadsiz taxayyul olamiga va qanchalar ulkan ijodiy tafakkurga ega bo‘lishi kerakligini tasavvur eting.

Yigirma to‘rt yoshida turkiy tilning eng boy til ekanini isbotlash, millatning sharafini munosib himoya qilish singari ulug‘ maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan va buning uchun kurash maydoniga tushganini e’lon qilgan hazrat Navoiy bu boradagi faoliyatini izchil takomillashtirib bordi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida buyuk mutafakkir turk shoirlarining forsiy tilda ijod qilishga rag‘bat ko‘rsatishlarining sababini, birinchidan, ular turkiy tilning fasohati va balog‘atidan xabardor emasliklari, ikkinchidan, nazmiy an’analar birqadar rivojlangani bois forsiyda ijod qilish nisbatan

osonroq ekani bilan izohlaydi. Odamzodning tabiati, odatda, shunday: oson turganda o‘zini qiyashni istamaydi. Hazrat Navoiy turkiy tilning forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatadi. Akademik Alibek Rustamiy fikricha, buyuk mutafakkir bunday xususiyatlardan to‘rttasini ilmiy jihatdan asoslagan:

**1. Turkiyda umumiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlardan tashqari juz’iy tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning ko‘pligi.** “Navoiy forsiyda muodili bo‘lmagan yuzta fe’lning ro‘yxatini beradi va turli sohalarga oid buyum, tabiiy hodisa, hayvon va parranda ismlarini keltiradi va ularning ba’zilariga she’riy misol keltirib, ma’nolarini tushuntirib beradi. Undan tashqari, bunday turkiy so‘zlarning ayrimlari fors tilida ham qo‘llanishini aytib o‘tadi” [Рустамий 2022: 30]. Hazrat Navoiy, jumladan, mashhur shoirlar may ta’rifida mubolag‘a qilganlarini ta’kidlar ekan, turkiydagi “sipqarmoq” lafziga to‘xtalib, mubolag‘ani bundan ham o‘tkazib bo‘lmasligini aytadi va mana bu baytni misol sifatida keltiradi:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,  
Shart bukim, har necha tuttsang labo-lab sipqaray.

Ushbu bayt hazrat Navoiyga shu darajada zavq beradiki, asosan ilmiy uslubga qat’iy amal qilingan asarning shu o‘rnida hayajonini yashirib o‘tirmaydi: “Oyo! Bu “sipqaray” lafzi mazmunig‘a yetganda, forsiy she’rda ne iloj qilg‘aylar? Va “tomshimoq”ki, g‘oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g‘arib ma’ni adosida turkchada bu matla’ bordurki, bayt:

Soqiyo chu ichib, manga tutar qo‘sh:  
Tomshiy-tomshiy ani qilay no‘sh”.

[Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 517].

**2. Turkiyda shakldosh so‘zlarning ko‘pligi.** “...bu tajnis, iyhom san’atlari uchun zarurdir” [Rustamiy 2022: 30]. Hazrat Navoiy “ot” so‘zi asosidagi tuyuqni bunga misol qilib keltiradi: “Masalan: ot lafziki, bir ma’ni icmdur, yana bir ma’ni markabdur va yana bir ma’ni amrdurki, toshni yo o‘qni ot, deb buyurg‘aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim, bayt:

Chun pariyu hurdur oting, begin,  
Sur’at ichra dev erur oting, begin,  
Har xadangikim, ulus andin qochar,  
Notavon jonim sari oting, begin.

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xossasidurki, sortda yo‘qtur va muni tuyug‘ derlar” [Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 520]. Asarda forsiyda uchramaydigan shakldosh so‘zlarga bundan ham boshqa ko‘p misollar berilgan. Masalan: “Va ko‘k lafzin ham necha ma’ni bila iste’mol qilurlar. Biri ko‘k – osmonni derlar. Yana ko‘k ohangdur. Yana ko‘k tegrada ko‘klamakdur. Yana ko‘k qadog‘ni ham derlar. Yana ko‘k sabza va o‘langni dag‘i derlar.

Bu nav’ alfoz hamki, uch ma’ni va to‘rt ma’ni va ortug‘roqkim, iroda qilsa bo‘lg‘ay, ko‘p borki, forsiy alfozda andoq yo‘qtur” [Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 521].

**3. Turkiyda forsiy tilda bo‘lmagan, lekin nutq uchun zarur bo‘lgan siyg‘a** (grammatik forma, fe’l shakllari – N.J.) **va tarkiblarning mavjudligi.** Hazrat Navoiy turkiy tilda inson harakati, holati bilan bog‘liq nozik ma’nolarni ifodalashda ayni shunday siyg‘alar qo‘llanishiga aniq misollar keltiradi. Masalan, bir ishni kimdir bajarishiga gumon qilinganda, unga nisbat berish uchun borg‘udek, yorg‘udek, kulgudek, bilgudek, aytqudek, qaytgudek, urg‘udek, surg‘udek kabi so‘zlar ishlatalishi aytildi. Bu so‘zlar Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida hozir ham faol qo‘llanadi. Jumladan, borg‘udek so‘zi – boradigan shashti bor, bilgudek – imkon berilsa, aniq bilib oladi, degan ma’nolarni anglatadi. Buyuk mutafakkir “...ammo munda diqqat ko‘ptur... va bu forsiyda bo‘lmas”,

[Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 524], deya ta'kidlaydi. Yoki forsiy tilda uchramaydigan bila ko'r, qilako'r, ketako'r va yetako'r singari siyg'alardan mubolag'a iroda qilinishini aytadi.

#### **4. Turkiyning tovush xususiyati qofiya uchun fors tilinikiga nisbatan qulayroq ekani.**

Hazrat Navoiy biror rang yo sifatni orttirib, mubolag'a bilan ifodalash imkoniyati turkiy tilda keng ekaniga alohida urg'u beradi. Bunga misol qilib, avvalgi harfga bir "p" yoki "mim" qo'shish orqali rang yoki sifatni orttirish mumkinligiga urg'u beradi. Masalan, op-oq, qop-qora, qip-qizil, sap-sarig', yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochug', chup-chuqur, bu nav' xili ham topilur; "mim" misoli: ko'm-ko'k, yam-yashil, bo'm-bo'z. Yoki ayrim so'zlarga "lom" bilan "vov"ni qo'shish orqali ham tovush jihatdan bir-biriga uyg'un so'zlar yasalishi ta'kidlanadi. Jumladan, hirovul, qarovul, chingdovul, yankovul, so'zovul, patovul, kitpovul, yasovul, bakovul, shig'ovul va daqavul so'zlarini bunga dalil qiladi. Bular barchasi nazmiy asarda qofiya uchun qulay ekani turkiy tilning fasohati baland ekanini tasdiqlaydi.

Hech bir zamonda ahamiyatini yo'qotmaydigan ushbu qarashlar buyuk mutafakkirning turkiy tilni kompleks o'rganish va forsiy til bilan komparativistik tahlil etishda nainki ilmiy-ijodiy tafakkur asosida, balki qalb qo'ri bilan ham yondashganidan dalolat beradi. Hazrat Navoiyning ta'kidlashicha, bunday daqiq misollar nihoyatda ko'p, faqat "...bu kunga degincha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmag'on jihatdin bu yashurun qolibdur" [Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 525].

Asardagi tahliliy fikrlar yana shundan darak beradiki, hazrat Navoiyning millatparvarligi milliy ruhiyatning teran ildizlaridan oziqlanadi va yuksak ilmiy-nazariy salohiyatga asoslangan. Bu tuyg'u ulug' mutafakkir qalbidagi sobit e'tiqod va yoniq muhabbat bilan uyg'unlashib ketgan. Akademik Shuhrat Sirojiddinov to'g'ri yozganidek, buyuk mutafakkir: "...tilimizning boy imkoniyatlarini ko'rsatib bera olgan va arab hamda fors tillaridan kam bo'limgan go'zal va qudratli til ekanligini isbotlab bergen" [Сирожиддинов, 2023: 3-4].

"Muhokamat ul-lug'atayn"da hazrat Navoiy turkiy tilning dunyo tillari orasidagi o'rni nechog'liq baland ekanı haqida mana bunday yozadi: "...uch nav' tildurkim, asl va mo'tabardur va ul tillar iborot gavhari bilan qoyilining adosig'a zevar va har qaysining furu'i bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning mash'aidurki, Nuh payg'ambar salovatullohi alayhining uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur, yetishur" [Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, 2011: 514]. "Asl tillarning mansha'i" – bu hazilakam ta'rif emas. "Mansha" – bir narsaning chiqib kelgan o'rni, kelib chiqish joyi, boshlanishi" [Навоий асарлари луғати 1972: 361], demakdir. Ma'lum bo'ladiki, bizning tilimiz boshqa asl tillarning kelib chiqishiga asos, zamin bo'lgan tillardan va biz dunyoning eng qadim millatlaridan ekanmiz. Ona tilimiz tarixini ana shu asosda ilmiy manbalarga tayangan holda yanada chuqurroq o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yadi bu ilmiy qarash.

Millat va milliylik masalasi hazrat Navoiy uchun konseptual ahamiyatga ega bo'lgani ayon. Buyuk mutafakkir millatni har ikki ma'noda – etnik va e'tiqodiy birlik sifatida ham teran anglagan, asarlarida shunday talqin etgan. Turkiy millat vakili sifatida ona til ravnaqini ta'minlash nechog'liq muhim ekanini boshqalardan ko'ra chuqurroq his qilgan. Chunki "Navoiy e'tiqodicha, til millat tushunchasining birinchi unsuridir. Millat atalmish hodisaning asl mohiyatidir. Agar inson boshqa jonli maxluqotdan so'z tufayli farqlansa, u mansub jamoalar, ya'ni millatlar bir-biridan, birinchi navbatda, bu so'zlarining shakl-u shamoyili, aytish ohangi va shularga muvofiq anglatgan ma'nolari bilan farqlanadilar. Milliylikni yo'qotish o'zlikni yo'qotishdir" [Қосимов 2011, 104]. Shuning uchun ham hazrat Navoiy turkiy tilning so'z boyligi va ifoda imkoniyati forsiydan ko'ra bir necha barobarga katta ekanini "Muhokamat ul-lug'atayn"da chog'ishtirma tahlil asosida ilmiy-nazariy jihatdan dalillagan bo'lsa, "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti, "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" va shu kabi o'ttizga yaqin asarlari orqali amalda ham namoyon etdi. "Xamsa"ning ikkinchi dostoni – "Farhod va Shirin"da ulug' millatparvar buyuk salaflari bilan nazm saltanatini bo'lishib oladi, qaysi bir qavm kimga tegishli ekaniga oydinlik kiritadi. Nizomiy Ganjaviy Ganja, Barda hamda Rumni olsa, Xusrav Dehlaviy til tig'i bilan Hindistonni fath etsa, Abdurahmon Jomiy Ajam bilan Arabda shon-u shavkat nog'oralarini chaldirsa, turk qavmini "xud meningdir", deya faxriya aytadi:

Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,

Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Olibmen tahti farmonimg‘a oson,  
Cherik chekmay Xitudin to Xuroson.

Xuroson demakim, Sherouz Tabrez -  
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,  
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.

Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,  
Aning zabitg‘a bir devon yibordim.

[Навоий. Фарнод ва Ширин, 2011: 730].

Darhaqiqat, buyuk Alisher Navoiy benazir asarlari bilan turkiy qavmni izzat taxtiga yuksaltirdi. O‘zi esa maoniy va fasohat mulkinining sohibqironi sifatida qo‘sishin tortmay turib, nazm lashkarlari bilan Xitoydan (Sharqiy Turkistondan) Xurosongacha, undan Sheroz-u Tabrizgacha bo‘lgan asosan turkiylar yashagan hududlarni farmoniga bo‘ysundirdi. “Devonu lug‘otit-turk”da yozilganidek, turkiy tildagi “mon” qo‘sishimchasi “emas” inkor ma’nosini anglatadi. Yuqoridagi she’riy iqtibosda keltirilgan “turkmon” qardosh turkmanlarni bildirmaydi. Turk deyilganda, turkmanlar ham nazarda tutilgan. Shunga ko‘ra, “turkmon” – turkiy bo‘lmagan xalqlar, demakdir. Ma’lum bo‘ladiki, o’sha davrdayoq hazrat Navoiyning so‘ziga – nainki turkiy millat, balki turkiy bo‘lmaganlar ham ko‘ngillarini-yu jonlarini bergan. Buyuk shoir lutf etganidek, qaysi bir yurtni zabit etmoqchi bo‘lsa, nazmiy devonini yuborishining o‘ziyoq kifoya qilgan, ular so‘z lashkariga qalban va fikran taslim bo‘lgan.

Ta’kidlash kerakki, usmonli adabiyoti ham yuz yillar davomida turkiy she’riyat sohibqironi hazrat Navoiy ijodining ta’sirida rivojlangan. Turk olimi, professor Vohid Turkning yozishicha: “Alisher Navoiy hayotligida buyuk bir san’atkor bo‘lgani G’arb Turk ziyolilalari tomonidan anglab yetilgan va asrlar mobaynida uning asarlari o‘qilgan, she’rlariga naziralar yozilgan, asarlarining nusxalari ko‘paytirilgan, kulliyotlari tayyorlangan, ijod namunalari o‘qib tushunilishi uchun lug‘atlar tuzilgan, ba’zi asarlari Turkiya turkchasiga o‘girilgan... Undan ta’sirlangan usmonli turk shoirlari Navoiy tilida she’rlar yozgan. U bir san’atkor sifatida butun san’at majlislarining to‘rida bo‘lgan va uning san’atkor sifatidagi hurmatiga necha asrlar o’tsa-da, qusur tegmagandir” [Vohit Turk 2023, 168-169].

Buyuk shoir ijod bilan muttasil mashg‘ul bo‘lib, “Xamsa”ni yozar ekan, turk ulusining ruhiyati, bu elning manfaati, bir lahza bo‘lsin, uning yodidan chiqqan emas. Chinakam millatparvar sifatida u forsiylar bahramand bo‘lgan badiiyat durdonalaridan turkiy millat mosivo bo‘lishini istamaydi. “Layli va Majnun” dostonida bu boradagi niyatlarini mana bu tarzda badiiy talqin etadi:

Chun forsi erdi nukta shavqi,  
Ozroq edi anda turk zavqi,

Ul til bila nazm bo‘ldi malfuz -  
Kim, forsi anglar o‘ldi mahzuz.

Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasonani hikoyat -

Kim, shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay,  
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay.

Nevchunki bukun jahonda atrok.  
Ko‘ptur xushtab’u sofidrok.

[Навоий. Лайли ва Мажнун, 2011: 271].

So‘z shavqi forscha, turk zavqi ozroq bo‘lgan, nazm faqat u tilda bitilib, forsiylar bahra olib turgan bir paytda buyuk bobokalonimiz Layli va Majnun rivoyatini turkcha boshlashga, mazkur afsonani ona tilida hikoyat qilishga jazm etadi. Bundan maqsad mazkur qissaning shuhratini jahonga yoyish, undan xushtab’ va sof idrok turk elini bahramand etish. Bu so‘zlar zamirida buyuk shoirning ona xalqiga cheksiz muhabbatni, uning uchun har qanday zahmat-u mehnatga tayyor ekani anglashiladi.

Hazrat Navoiy turkiy millatning yagona adabiy tili bo‘lishi, bu tildagi adabiyot yuksak darajada taraqqiy etishi uchun xizmat qilishni hayotiy a’moli deb bildi. Butun ijodiy quvvatini ana shu maqsad yo‘liga safarbar etdi. Eng muhimi, bunga erisha oldi. “Lison ut-tayr” dostonida ulug‘ shoir bu haqda mana bunday yozadi:

Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

[Навоий. Лисон ут-тайр, 2011: 281].

Haqiqatan, buyuk mutafakkir turkiy millatni bir til va bir adabiyot bayrog‘i atrofida yakqalam qildi – birlashtirdi. Zamondoshi va do‘sti, temuriyzoda hukmdor Sulton Husayn Boyqaro ta‘biri bilan aytganda: “Turkiy tilning o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi”. Qariyb yuz ming baytli benazir adabiy-ilmiy merosi bilan turkiy tilning dunyo tillari orasida mumtoz o‘rin egallashini amalda ham isbotladi.

**Xulosa:** Bugungi kunda turkiy xalqlarning o‘rtta bir tilini yaratish zarurati haqida so‘zlanyapti. Bizningcha, agar shunday tilga ehtiyoj sezilsa, bu, shubhasiz, Alisher Navoiy tili bo‘lishi kerak. Chunki buyuk Navoiy o‘sha murakkab va ziddiyatliz zamonda turkiy tilning xalqaro miqyosdagi e’tirofini ta‘min etdi. Teran falsafiy-irfoniy mazmun va betakror badiiy shakl sintezining mumtoz namunalari bo‘lgan asarlari bilan turkiy adabiyotni jahon estetik tafakkurining cho‘qqisiga olib chiqdi. Bu asarlar bugungi kunda ham barhayot turkiy ruhiyat ifodasi orqali bashariyatni xalqimizga xos kengfe’llilikka, o‘zaro dushmanlikni bartaraf etishga, tinchlik-ofiyat va taraqqiyot yo‘lida birlashishga, kamol kasb etishga da’vat etib kelayotir.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сигар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент:Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Еттинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
4. Алишер Навоий. Мухокамат ул-лугатайн. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
5. Алишер Навоий. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
6. Навоий асарлари лугати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
7. Рустамий, Алийбег. Ҳазрати Навоий маҳзани. – Тошкент: Zilol buloq, 2022.
8. Сирожиддинов, Шуҳрат. Амир Алишер. Ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент: Адабиёт, 2023.
9. Türk, Vahit. Türkiye’de Türk Kimliği ve Ali Şir Nevâyî. /“Алишер Навоий ва Шарқ Ренессанси” II Халқаро симпозиуми. – Тошкент: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2023.
10. Yusupova, Dilnavoz. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – Toshkent.: Tamaddun, 2022.
11. Қосимов, Бегали. Навоий асарларида миллат ва миллийлик масалаларининг қўйилиши. /Ўйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
12. Ҳусайн Бойқаро. Рисола (Нашрга тайёрловчилар: Алибек Рустам, Каримбек Ҳасан). – Тошкент: Шарқ, 1991.

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ  
TOM-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-4, ISSUE-1

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000